

JADIDLAR ASARLARIDA ARXAIKLASHGAN ETNOGRAFIK SEMANTIKASI

Khabibullayeva Gavhar Nosirjon qizi

Namangan davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14809473>

Arxaizmlar eskirgan soʻz tiplaridan biri boʻlib, zamonaviy narsa va hodisalarining eskirib qolgan nomlaridir. Agar istorizm hodisasida predmet yoki hodisaning oʻzi ham, nomi ham eskiradigan boʻlsa, arxaizm hodisasida esa predmet va hodisa zamonaviy boʻladi, ularning nomi yoki nomlaridan biri eskiradi, isteʼmoldan chiqadi, natijada narsa yoki predmetlar, hodisalar nomlari yangisi bilan atala boshlaydi. Xullas, bunda, asosan, hozirda hayotda mavjud boʻlgan narsalarni ifodalashda kamida ikkita soʻz ishtirok etadi, ulardan biri faol ishlatilsa, ikkinchisi, nafaol leksik qatlamga oʻtadi va asta-sekin eskiradi.

Tarixiy taraqqiyot talabi bilan baʼzi til birliklari saqlanib qolishi, eskirgan til vositalari oʻrnida yangi til vositalari qoʻllanishi mumkin. Bularning barchasi hayot talabi, ijtimoiy taraqqiyot taqozosi bilan yuz beradi. Buni hisobga olgan F.de Sossyur: “Agar biz tilni unda soʻzlashuvchi ommasiz faqat vaqt birligida, zamonda mavjud boʻlgan (yaʼni inson bir necha asrlar davomida yakka oʻzi yashagan) deb tasavvur qilsak, vaqt tilga oʻzining taʼsirini oʻtkazmas va tilda hech qanday oʻzgarish sodir boʻlmas edi. Va, aksincha, tilda soʻzlashuvchi ommani zamondan holi deb tasavvur qilinsa (yaʼni inson hayoti bir nuqtada toʻxtab qolsa), tilga ijtimoiy hodisalarining taʼsiri kuzatilmadi”¹, - degan edi. Bular tilda zamon, makon, ijtimoiy taraqqiyot, oʻz sohiblarining butun borligʻi katta ahamiyat kasb etadi, degan xulosa uchun asos boʻla oladi. Oʻzbek tili ham mazkur ijtimoiy hodisalarining taʼsirida oʻzgardi, koʻp til boyliklari isteʼmoldan chiqib ketdi, ularning oʻrnini yangi til vositalari egalladi. Ammo shuni ham qayd qilish kerakki, isteʼmoldan chiqib arxaiklashgan qatlam yozma yodgorliklarda saqlangan holda, hozirgi adabiy tilda uchramasa ham, xalq tilida uning ildizlari hanuzgacha asrab qolingan, reлект sifatida mavjud boʻlishi mumkin.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, arxaik soʻzlar shevalarda tarixiy soʻzlarga nisbatan koʻpchilikni tashkil qilmaydi. Sababi. shevalarda eski soʻzlar oʻrnini yangisi egallashi jarayoni juda sekinlik bilan oʻtadi. Adabiy tilda boʻlganidek, shevalarda ham soʻzlarning isteʼmoldan chiqishi, ularning oʻrnini boshqasi egallashi jamiyatda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar bilan chambarchas bogʻlikdir. Soʻzlarning arxaizmga aylanishida ikki xil holatni kuzatish mumkin: birinchisida soʻz oʻzi eskirib, uning oʻrniga zamon talablariga mos keladigan boshqa soʻz ishlatilsa, ikkinchisida soʻzlar maʼnolaridan biri eskiradi, boshqa maʼnolari esa saqlanadi.

Oʻzbek xalqining anʼanaviy kiyim-kechak madaniyatida ayollarning yuzini toʻsib turadigan, boshqan oʻralib kiyiladigan libosni anglatadigan “Paranji” etnografizmi hozirgi vaqtda qoʻllanilmaydiga arxaiklashgan leksema hisoblanadi. Hozirgi davrda paranjining muqobili sifatida “hijob”, “roʻmol” soʻzlari qoʻllaniladi. Jadidlar asarlarida paranji, chimmat, loʻki, chashmband soʻzlari uchraydi:

Yoʻlakdan Oftob oyim koʻrindi. Paranjisi boshida, chashmandi qoʻlida edi. Hasanali Oʻzbek oyim bilan tanishdirdi:

¹ Sossyur de F. Kurs obshey lingvistiki. Trudy po yazykoznaniyu. - M., 1933, - S. 86-87.

- Bu kishi qudachangiz- Oftob Oyim bo'ladirlar. O'zbek oyim Oftob oyim bilan salomlashib quchoqlasha ketdilar. O'zbek oyimdan keyin boshqa xotinlar uning bilan ko'rishib chiqdilar [A.Qodiriy. "O'tkan kunlar". B-313].

Bu misoldan ko'rinib turibdiki, paranji va chashmband farqli liboslar hisoblanadi. Lekin "O'zbek tilining etimologik lug'ati" da chimmat va chashband so'zi bir so'zligi keltirilgan: CHIMMAT Bu ot asli tojik tilida 'ko'z' ma'nosini anglatadigan chashm oti bilan (TjRS, 439) bog'ich ma'nosini anglatadigan band otidan (TjRS, 44) tuzilgan bo'lib, o'zbek tiliga juda murakkab tovush o'zgarishlari bilan olingan; chashm qismida a tovushi i tovushiga almashtirilib, sh tovushi tashlangan: chashm> chim; band qismida b tovushi m tovushiga, d tovushi m tovushiga almashtirilib, n tovushi tashlangan: band > mat. Bu ot asli "ko'zni to'sadigan parda" ma'nosini anglatadi (O'TIL,II, 369)², [3, 255]

Demak, arxaizmlar zamonaviy narsa, hodisalarning eskirib qolgan nomlaridir. Arxaizmlardan predmet, narsa, hodisalar nomlaridan biri iste'moldan chiqadi, ya'ni eskiradi. Ular endilikda boshqa nom bilan ataladigan bo'ladi. Bu jarayon jamiyatda, hayotdagi sodir bo'ladigan har xil o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Shevalarda narsa, hodisalar nomlaridan birining eskirishi, ko'p ma'noli so'zlar ma'nolaridan birining eskirishi hodisalari uchraydi.

Tarixiy so'zlar o'tmishda bor bo'lgan narsa va tushunchalarning nomini bildirgan, ammo hozirda eskirib qolgan so'zlardir

Bu jarayon adabiy tilga nisbatan shevalarda sekinlik bilan o'tadi. Chunki shevalarda so'zlarning eskirishi, yangi so'zlarning kirib kelishi tez sodir bo'lmaydi. Tarixiy so'zlar, ko'pincha, moddiy va ma'naviy hayot, turmush, davlat tuzilishi, din, urf- odatlar, turli lavozimlar, unvonlar, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-asboblilar bilan aloqador bo'lib, jamiyatdagi ro'y bergan o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda, ularning nomlari ham davr o'tishi bilan eskiradi, ular o'rnini boshqa so'zlar egallaydi.

1. Qishloq xo'jaligi va dehqonchilikka oid arxaiklashgan etnografizmlar:

Mola Bu ot "ishqala", "tekisla" ma'nosini anglatadigan tojikcha molidan fe'lining (TjRS 232) mol hozirgi zamon asosiga -a qo'shimchasini (TjRS 543) qo'shib hosil qilingan bo'lib, "haydalgan yerning kesaklarini maydalab tekislaydigan qishloq xo'jaligining asbobi" ma'nosini anglatadi (O'TIL, I, 470) Bu otdan o'zbek tilida molala- fe'li yasalgan³.

2. Kiyim-kechakka oid arxaiklashgan etnografizmlar :

Har zamon titrab, uchib ketishka hozir turg'an boshidag'i sarig' atlas parchasini (ro'ymolni) bir qo'li bilan bosib ushlagan edi (Qodiriy).

*Taom olib yey desam, ustimdagi yirtiq **chakmon**dan boshqa hech narsam yo'q(Avloniy).*

*Turkiston bo'limida usta To'xtashning yog'och **kavushiga** ham diqqat qildi:*

-Nima bu? Kalo'shmi? (Cho'lpon).

Bu so'z lug'atda shunday izohlangan:

Bu kungi sovuq bilan qor har kimga ham g'archliq kafsh in'om qilg'an, boy va beklar oyog'idag'i bedona, sag'ri qala kafshlar bilan kambag'al kosiblar kiygan upika, aybaki kafshlarning o'zaro farqi qolmag'an va hatto ba'zilar oyog'idagi Yog'och kafshlar ham ajoyib nag'manavozliq qilar edilar(Qodiriy).

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг етимологик луғати. III. Тошкент: Университет, 2000. Б- 255

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг етимологик луғати. III. Тошкент: Университет, 2000. Б-140

*Odina uch yil zavodda ishladi, ish haqi juda oz bo'lsa ham, yemay-ichmay, to'y niyati bilan anchagina narsa to'pladi: bir to'p chit, bir to'p **satin**, bir to'p surp, ikkita ro'mol, bir kiyimlik shoxi va bir juft kavush-maxsi olib xurjunga tikib qo'ygan edi (Sadriddin Ayniy).*

*Bulardan biri baland bo'yli, baquvvat gavdali, quloqlari irvaygan, qo'y ko'z, qo'ng'ir soqol, oyog'iga **chuqay** kiygan O'rta yashar bir kimsa edi. (Choriq o'rnida kiyilaturg'on, ot pochasi bilan ishlangan oyoq kiyimi)(Elbek).*

*Sepkil va chechak bog'i bu betni "muzoyaqaqor" qilib ko'rsatkanidek oyog'idagi **choriq**, ustidagi qisqa, eski alak chopon, belidagi besh-o'n aylantirib bog'lang'an bo'z belboq, boshining uchdan bir qismigagina qo'nib o'lturgan tor pilta to'ppi bir "hush"ga yana bir yuz "hush" qo'shib arz qilar edi (Qodiriy).*

CHoriq "qalin xom teridan tayyorlangan, kalta qo'njli, tagi qalin, uchi yuqoriga ozroq qayrilgan oyoq kiyimi"... Demak, chariq oti asli "o'rab bog'la-" ma'nosini anglatgan chari fe'lidan (bunday fe'l qirg'iz tilida ham mavjud: KRS, 851) –q qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik o'zbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan, i unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: chari- + q=chariq > châriq⁴.

Yigirma-o'tiz chog'liq yosh yigitlar - Rahmatning o'rtoqlari, ular orasida Otabek - kuyav ko'rindi: boshida simobi! Shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po'stin, ichida o'zining Shamayda tiktirgani osmonirang movut, kamzul, movut shim: oyog'ida qalapoy afzali, belida Kumushbibining usta qo'li bilan tikilgan shohi qiyig'...(Qodiriy)

3. Milliy taomlar nomini anglatgan arxaiklashgan etnografizmlar:

Varaqi somsalar qilsak, oq unlardan g'alati mantilar, chuchvaralar qilsak, boylarnikida bo'ladigan dimlama qo'gurmalar gilsak...(Cho'lpon).

Varaqi Bu sifat asli "barg" ma'nosini anglatib keyinchalik "qog'oz" ma'nosini anglati boshlagan arabcha varaq otidan (ARS,883) –I qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib asli "varaqlardan iborat", "qavat-qavat" ma'nosini anglatadi, shu ma'no asosida "yupqa yoyilgan bir necha varaq yog'li xamir parchalari ichiga-qiyma solib tugib, yog'da pishiriladigan somsa ma'nosi yuzaga kelgan(O'TILL, I, 172)⁵.

Mahalla xodimchasi ham bir dona qotgan kulcha birla sahal kam bir tabaq sut oshini ko'tarub, ul yerda ichmasdin uyiga kelturdi(Mirmuhsin Shermuhammedov)

4. Uy-ro'zg'or buyumi va hunarmandchilikka oid arxaiklashgan etnografizmlar:

Ana, mistovoqda non, likopchada mayiz bor, nondan, mayizdan olib, yo'lga tushing! Tez bo'ling, jon xola! (Cho'lpon)

Kecha rostan ham Boltay Muhammadi masjidni qiziga qudasinikidin barkashda osh keladi, degan edi. Kecha panjshanba kuni kelmadi(Mirmuhsin Shermuhammedov)

Barkash Bu ot "meva-cheva" ma'nosini anglatadigan tojikcha bar otiga (TjRS, 45) "sol" ma'nosini anglatadigan kashidan fe'lining kash hozirgi zamon asosini(TjRS,284) qo'shib hosil qilingan bo'lib(TjRS 47), "meva-chev solinadigan ro'zg'or buyumi","patnis" ma'nosini anglatadi(O'TILL, I, 82)⁶.

O'z ma'naviyati va madaniyatini, milliy qadriyatlarini, ma'rifiy o'ziga xosliklarini, uning insoniyat ravnaqi uchun taqdim qilayotgan madaniy boyliklarini asrlar osha avlodlarga yetkazib kela olgan tuganmas xazina bu - har bir xalqning o'zligidir. Shu sababli ham har bir xalqning ona

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I. Тошкент: Университет, 2000. Б- 435

⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III. Тошкент: Университет, 2000. Б- 56

⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III. Тошкент: Университет, 2000. Б-22

tilidagi lisoniy boyliklarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi, ya'ni ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida adabiy tilning xalq tiliga, dialektlarga ta'siri katta bo'ladi.

References:

1. Sossyur de F. Kurs obshey lingvistiki. Trudy po yazykoznaniyu. - M., 1933, - S. 86-87.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг етимологик луғати. III. Тошкент: Университет, 2000. Б- 255
3. Ogli, N. K. N. (2024, September). ANALYSIS OF SOME WORDS IN UZBEK WITH COMPLEX MORPHOLOGICAL COMPOSITION. In Next Scientists Conferences (pp. 61-63).
4. Nosirjon o'gli, N. K. (2024). TRADITIONAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF MORPHEME IN UZBEK LINGUISTICS. American Journal of Philological Sciences, 4(10), 53-56.
5. Nosirjon O'g'li, N. K. (2024, July). ANALYSIS OF SOME WORDS IN UZBEK LANGUAGE THAT ARE DIFFICULT TO SEGMENT. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 168-169).
6. Nosirjon o'g'li, X. N. (2024). ANALYSIS OF SOME WORDS WHICH ARE DIFFICULT TO DISTRIBUTE INTO UZBEK LANGUAGE. International journal of artificial intelligence, 4(03), 592-594.
7. Xabibillayev, N. (2024). KEYINGI DAVRDA O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI SO 'Z TARKIBI BO 'YICHA QILINGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI. Наука и инновация, 2(22), 73-77.